



ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATSIYA BO`LIMI KATTA HAMSHIRASI FAOLIYATINING O`ZIGA XOS JIHATLARI.

Hafizova Maftuna

PhD. Dotsent Yuldasheva Shaxlo

hafizovamaftuna93@gmail.com

Buxoro davlat Tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20302444>

Annotatsiya: Mazkur maqolada anesteziologiya va reanimatsiya bo'limida faoliyat yurituvchi katta hamshiraning kasbiy vazifalari, mas'uliyat darajasi va tibbiy jamoada tutgan o'rni yoritib berilgan. Bo'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yerda hayot uchun xavfli bo'lgan holatdagi bemorlar bilan ishlanadi, bu esa katta hamshiradan yuqori darajadagi tayyorgarlik, muvofiqlashtirish qobiliyati va tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Maqolada katta hamshiraning diagnostik va davolovchi muolajalarni muvofiqlashtirishdagi roli, bemor parvarishini tashkil etish, yosh hamshiralarga rahbarlik qilish hamda reanimatsion uskunalarning texnik tayyorgarligini nazorat qilish kabi jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy davrda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, stressga bardoshlilik va jamoaviy ishning ahamiyati haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: anesteziologiya, reanimatsiya, katta hamshira, bemor parvarishi, hayotiy funksiyalarni tiklash, reanimatsion yordam, kasbiy kompetensiya, sog'liqni saqlash jamoasi, favqulodda holat, tibbiy muvofiqlashtirish, stressga bardoshlilik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются профессиональные обязанности, уровень ответственности и роль старшей медицинской сестры, работающей в отделении анестезиологии и интенсивной терапии, а также в составе медицинской бригады. Отличительной особенностью этого отделения является работа с пациентами в жизнеугрожающих состояниях, что требует от старшей медицинской сестры высокого уровня подготовки, навыков координации и быстрого принятия решений. В статье анализируется роль старшей медицинской сестры в координации диагностических и терапевтических процедур, организации ухода за пациентами, руководстве младшими медицинскими сестрами и контроле технической готовности оборудования интенсивной терапии. В статье также обсуждается важность развития профессиональных компетенций, стрессоустойчивости и командной работы в современных условиях.

Ключевые слова: анестезиология, интенсивная терапия, старшая медицинская сестра, уход за пациентами, восстановление жизненно важных функций, интенсивная терапия, профессиональная компетентность, медицинская бригада, неотложная помощь, медицинская координация, стрессоустойчивость.

Abstract: This article discusses the professional duties, level of responsibility and role of a senior nurse working in the anesthesiology and intensive care unit and the medical team. A distinctive feature of the unit is that it deals with patients in life-threatening conditions, which requires a high level of training, coordination skills and quick decision-making from the senior nurse. The article analyzes the role of the senior nurse in coordinating diagnostic and therapeutic procedures, organizing patient care, leading junior nurses and monitoring the

technical readiness of intensive care equipment. The article also discusses the importance of developing professional competencies, stress tolerance and teamwork in modern times.

Keywords: anesthesiology, intensive care, senior nurse, patient care, restoration of vital functions, intensive care, professional competence, health care team, emergency, medical coordination, stress tolerance.

Kirish. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida anesteziologiya va reanimatsiya bo'limlari eng mas'uliyatli va murakkab tibbiy xizmat ko'rsatiladigan yo'nalishlar sirasiga kiradi. Ushbu bo'limlarda hayotiy xavf ostida bolgan bemorlar bilan ishlash, ularning hayotiy funksiyalarini tiklash va doimiy nazorat qilish tibbiy xodimlardan yuqori darajadagi malaka, tezkorlik, aniqlik va ruhiy barqarorlikni talab etadi. Ayniqsa, katta hamshiraning ushbu muhim bolimdagi roli alohida e'tiborga loyiqdir. Katta hamshira nafaqat bevosita parvarish faoliyatini nazorat qiladi, balki bolimdagi barcha hamshiralarning ishini tashkil etadi, bemorlar holatini monitoring qiladi, reanimatsion muolajalarni tayyorlaydi va bajarilishini muvofiqlashtiradi. U tibbiy texnika va uskunalarning tayyor holatda bolishini, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya etilishini, shuningdek, hujjatlar yuritilishini ham ta'minlaydi. Tibbiyotda yangi texnologiyalar joriy qilinib borayotgan hozirgi davrda, katta hamshiralar zimmasiga nafaqat amaliy, balki tashkiliy va pedagogik vazifalar ham yuklanmoqda. Ular yosh hamshiralar uchun ustozlik qiladi, jamoada kasbiy muhitni shakllantiradi va operativ vaziyatlarga tayyor bolishni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, anesteziologiya va reanimatsiya bolimida faoliyat yurituvchi katta hamshiralarning ish faoliyatini chuqur organish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada katta hamshiraning ushbu bolimdagi faoliyati, kasbiy vazifalari, psixologik va kasbiy kompetensiyalari, hamda u duch keladigan murakkab holatlar yuzasidan tahlillar keltiriladi.

Tibbiyot amaliyotida anesteziologiya va reanimatsiya bo'limlari inson hayotini saqlab qolishning eng muhim zvenolaridan biri sifatida qaraladi. Bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi katta hamshiralar faoliyatining o'ziga xos jihatlarini ilmiy yondashuv asosida yoritish bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda oz ifodasini topgan. Xorijiy adabiyotlarda, xususan, J. Morton va L. Marino kabi mutaxassislarining asarlarida reanimatsiya bo'limlarida ishlovchi katta hamshiralar klinik ko'nikmalar bilan bir qatorda, operativ boshqaruv, jamoa koordinatsiyasi va qaror qabul qilish mas'uliyatiga ham ega bo'lishlari ta'kidlangan. Ularning ta'kidlashicha, katta hamshiralar bemorning holatini baholashda shifokor bilan teng mas'uliyatda ishtirok etadi. D. Benner va P. Benner kabi tadqiqotchilar esa kasbiy kompetensiyalar nazariyasi orqali hamshiralarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, reanimatsion muhitda katta hamshiraning ko'p yillik tajribaga tayangan holda —ekspert|| darajaga chiqishini asoslab berishgan. Rossiyalik olimlardan И.Ю. Гусева ва С.М. Никитина tomonidan anesteziologiya va reanimatsiya bo'limlarida hamshiralar faoliyatini tashkil etishga oid tadqiqotlarda, ayniqsa, favqulodda holatlarda togri harakat qilish algoritmlari, shoshilinch yordam ko'rsatishdagi muvofiqlashtirish va emotsional bardoshlilikka katta e'tibor berilgan. O'zbekistonlik mualliflar — Z. R. Xo'jayev, D. M. Komilova va boshqalar tahriridagi mahalliy adabiyotlarda reanimatsion yordamda hamshiralik parvarishining tibbiy va etik talablari, yondashuvlar, parvarish bosqichlari va hujjatlashtirish masalalari keng yoritilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni korsatadiki, katta hamshiralar anesteziologiya va reanimatsiya bo'limida bemor hayotini saqlab qolish, parvarish sifatini ta'minlash va jamoa ishini muvofiqlashtirishda muhim o'rin

tutadi. Shu sababli, ularning faoliyatiga oid ilmiy yondashuvlar kasbiy tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi. Metod va metodologiya. Mazkur tadqiqotda anesteziologiya va reanimatsiya bolimi katta hamshirasining kasbiy faoliyatini organish, tahlil qilish va uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsad qilib qoyildi. Shu asosda tadqiqot quyidagi metodologik asoslar va amaliy metodlarga tayangan holda olib borildi: Metodologik asoslar: Tadqiqotning metodologik bazasi sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: → Tizimli yondashuv – katta hamshiraning faoliyati bolimdagi boshqa tibbiy xodimlar bilan uzviy bogliqlikda organildi. → Faoliyat yondashuvi – katta hamshiraning kasbiy majburiyatlari, amaliy va tashkiliy vazifalari tahlil qilindi. → Kasbiy kompetensiyaviy yondashuv – faoliyatni baholashda malaka va konikmalar mezonlari asos qilib olindi.

Tadqiqot metodlari: 1. Tahliliy (analiz) metodi – ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, tibbiy protokollar o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari umumlashtirildi. 2. So'rovnoma usuli – 20 nafar katta hamshiraga faoliyat mazmuni, kasbiy muammolar, zarur kompetensiyalar yuzasidan anketalar tarqatildi. 3. Suhbat metodi – reanimatsiya bo'limida faoliyat yuritayotgan malakali hamshiralar bilan ochiq intervyular o'tkazildi. 4. Kuzatuv usuli – bevosita klinik amaliyot jarayonida katta hamshiraning kundalik faoliyati (tashkiliy, klinik, nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalari) kuzatildi. 5. Taqqoslash usuli – katta hamshiralarning faoliyati boshqa bo'limlardagi rahbar hamshiralar faoliyati bilan solishtirilib, o'ziga xosliklar aniqlashtirildi.

Natija. Tadqiqot natijalarini to'g'ri tahlil qilish maqsadida yig'ilgan ma'lumotlar tizimlashtirilib, statistik jihatdan guruhlash va xulosalash orqali umumlashtirildi. Ushbu metodlar asosida anesteziologiya va reanimatsiya bolimida katta hamshiraning professional portreti, duch keladigan muammolar va ularning echimlariga oid tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida anesteziologiya va reanimatsiya bo'limida faoliyat yuritayotgan katta hamshiralar ishtirokida so'rovnoma, suhbat va kuzatuv asosida amaliy tahlillar olib borildi. Natijalar ularning kasbiy faoliyati o'ziga xos murakkablik va mas'uliyat bilan ajralib turishini ko'rsatdi. Quyida asosiy natijalar keltiriladi: Kasbiy faoliyatning ko'p qirrali xususiyati: Tadqiqotda qatnashgan 20 nafar katta hamshiraning 90% i o'z faoliyatida nafaqat parvarish ishlarini, balki tashkiliy, nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalarni ham bajarishini qayd etdi. Ular bemor holatini monitoring qilish, yosh hamshiralarga yo'naltiruvchi rahbarlik qilish, asbob-uskunalarining tayyor holatda bolishini nazorat qilishda faol ishtirok etadilar. Tezkorlik va stressga bardoshlilik: Respondentlarning 75% i oz faoliyati yuqori darajadagi psixologik bosim, tezkor qaror qabul qilish va shoshilinch holatlarga tayyorlikni talab qilishini ta'kidladi. Ayniqsa, reanimatsiya holatlarida vaqt omili muhim rol oynaydi. Kasbiy malaka va bilimlarni uzluksiz yangilashga ehtiyoj: So'rovnomada ishtirok etganlarning 82% i anesteziologiya va reanimatsiya bo'limidagi zamonaviy texnologiyalar, dori vositalari va muolajalar boyicha doimiy ravishda bilimlarini yangilab borishga ehtiyoj sezishlarini bildirishdi. Jamoaviy hamkorlik: Katta hamshiralar oz ishlarida doimiy ravishda shifokor-anesteziolog, reanimatolog, laboratoriya va boshqa bolim xodimlari bilan hamkorlikda ishlashini, samarali aloqa va koordinatsiya ularning faoliyatida muhim o'rin tutishini tasdiqlashdi (88%). Yosh kadrlar bilan ishlash: Tadqiqotda aniqlanishicha, katta hamshiralar nafaqat klinik jarayonlar, balki pedagogik vazifalarni ham bajaradilar. Ularning 65% i yosh va yangi ish boshlagan hamshiralarni o'rgatish, nazorat qilish va ularga kasbiy yo'l-yoriq korsatish boyicha faol ishlayotganini aytib otdilar.



Xulosa. Tadqiqot davomida katta hamshiralalar tomonidan aytilgan fikrlardan ma'lum boldiki, ularning ishida eng muhim omillar — Reanimatsion holatlarda tez va aniq harakat qilish; Bemorlarga psixologik yondashuvni to'g'ri tanlash; Yosh hamshiralarni tarbiyalash va ularga namuna bolish; Tibbiy texnologiyalardan samarali foydalanish; Bolimda jamoaviy muvozanatni saqlab turish. Shu bilan birga, ayrim kamchilik va muammolar ham kuzatildi. Jumladan, katta hamshiralalar uchun malaka oshirish kurslarining yetarli emasligi, psixologik yordam tizimining yoqligi va mehnat sharoitlarining murakkabligi ularning samaradorligiga salbiy ta'sir korsatmoqda. Shunday qilib, anesteziologiya va reanimatsiya bolimi katta hamshirasining faoliyati — bu tibbiy, tashkiliy va pedagogik mas'uliyatlar uyg'unlashgan murakkab tizimdir. Ularning mehnatini ilmiy asosda organish, baholash va qollab-quvvatlash zamonaviy sogliqni saqlash tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tadqiqot natijalari va tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

References:

1. Гусева И.Ю., Никитина С.М. Основы сестринского дела в реаниматологии и анестезиологии. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021. — 256 с. 7 Journal of Healthcare and Life-Science Research Vol.
2. 4, No. 7, 2025 ISSN: 2181-4368 2. Benner P. From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice. — Menlo Park: Addison-Wesley, 1984. — 307 p. 3. Marino P.L. The ICU Book. — 4th ed. — Philadelphia: Wolters Kluwer, 2014. — 1092 p.
3. 4. Morton P.G., Fontaine D.K. Critical Care Nursing: A Holistic Approach. — 10th ed. — Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2012. — 848 p. 5. Хўжаев З.Р., Комилова Д.М. Реанимация ва интенсив терапияда ҳамширалик хизмати: ўқув қўлланма. — Тошкент: —Ibn Sino||, 2022. — 144 б.
4. 6. O_zbekiston Respublikasi Sog_liqni saqlash vazirligi. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo_yicha klinik protokollar. — Toshkent, 2021. — 118 б.
5. 7. Всемирная организация здравоохранения. Руководство по оказанию неотложной помощи. — Женева: ВОЗ, 2020. — 200 с.
6. 8. Шарипова Н.М. Психологическая устойчивость медицинских сестер в условиях интенсивной терапии // Медицинская психология в России. — 2020. — № 4. — С. 52-59.
9. Rahmatova M.Y. Kasbiy kompetensiyalar va zamonaviy hamshiralik yondashuvlari. — Samarqand: —Ilm Ziyo||, 2021. — 96 б.
7. 10. Sog_liqni saqlash xodimlari uchun o_quv-metodik qo_llanma: Reanimatsiya bo_limi faoliyati va hamshiralik nazorati. — Toshkent: Respublika ilmiy-amaliy markazi, 2023. — 74 б.

8